O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

# DINSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami*

**XVI**

TOSHKENT – 2024

**Alimova, M., Ernazarov, O.**
Dinshunoslikning dolzarb muammolari [Matn]: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami / M.Alimova, O.Ernazarov. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2024. – 392 b.

Mas’ul muharrir:
**Z.Islomov** – *filologiya fanlari doktori, professor*

Tahrir hay’ati:
**M.Alimova, N.Nizomiddinov, R.Urazova, R.Isakdjanov, O.Ernazarov, M.Abdullayeva, G.Xudoyberganova**

Tuzuvchilar:
**M.Alimova** – *tarix fanlari nomzodi, dotsent*
**O.Ernazarov** – *tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Taqrizchilar:
**M.Muhammadsiddiqov** – *siyosiy fanlar doktori, professor*
**Sh.Ziyodov** – *tarix fanlari doktori*

Ushbu to‘plam O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida har yili an’anaviy tarzda o‘tkaziladigan “Dinshunoslikning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallarini o‘zida mujassam etgan. To‘plamda respublikamizdagi oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida dinshunoslik fanlari bo‘yicha dars beruvchi professor-o‘qituvchilar, dinshunoslik sohasi taniqli olimlari, islomshunos, sharqshunos, manbashunos, tarixchilar, shuningdek, yosh ilmiy tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari asosida yozilgan maqolalar jamlangan. Mazkur to‘plam materiallarida diniy bag‘rikenglik, milliy va diniy qadriyatlar uyg‘unligi, ajdodlar ilmiy-ma’naviy merosining hayotimizda tutgan o‘rni o‘z ifodasini topgan. To‘plam dinshunoslik sohasida izlanish olib borayotgan ilmiy tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchi va pedagoglarning ilmiy-amaliy faoliyatlarini samarali tashkil etishda muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

*To‘plamga kiritilgan materiallarda keltirilgan raqam, fakt va ma’lumotlar uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.*

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy va o‘quv-uslubiy kengashining 2024-yil 1-maydagi 9-son majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etildi.*

*O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2024-yil 29-maydagi 04-07/3219-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.*

© Toshkent, 2024

**Laylo G‘aybullayeva,**
*Samarqand davlat chet tillari instituti*
*“Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari”*
*kafedrasi tadqiqotchisi*

# MAHALLADA YOSHLAR FAOLLIGINI OSHIRISHDA MAFKURAVIY IMMUNITETNING O‘RNI

Mamlakatimiz mahallalarida xalqning boy intellektual-madaniy merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida yoshlar faolligini oshirish, ularning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini yuksaltirish borasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Yoshlarga doir faollikni hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettirish, ularda mustahkam mafkuraviy immunitetni kuchaytirish zamon talab qilayotgan vazifadir. Har bir mahallada yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol toptirish, baxtli bo‘lishi ta’minlash davlatning bosh maqsadi sanaladi. Bu vazifani amalga oshirishda eng avvalo, yoshlarning faolligini oshirish, ularda yangicha dunyoqarashni shakllantirish orqali mafkuraviy immunitetning zamonaviy usul-vositalarini o‘rgatish, uning mexanizmlari hamda qonuniyatlarini takomillashtirish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Yoshlar dunyoqarashini yuksaltirish, ularda faollikni shakllantirishga barcha davrlarda alohida e’tibor qaratilgan.

Bugungi globallashuv jarayonlarining shiddatli tus olishi dunyo miqyosida tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlarni tobora kuchaytirayotganligi mafkuraviy immunitet bilan qurollanishga chorlamoqda. Dunyoda sodir etilayotgan bunday murakkab va tahlikali vaziyatni ko‘pincha har qanday xalq, millat, jamiyat va davlat hayotida muntazam sezgir, xushyor hamda ogoh bo‘lish borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Chunki u yoshlarning axloqiy qiyofasi, qalbi va ongini egallashga intilayotgan ma’naviy tahdidlar bilan endigina shakllanib kelayotgan yosh avlodning ma’naviyatiga ta’sir qilayotganligi tabiiy holdir. Uzluksiz va keng qamrovli bu jarayon tufayli mamlakatimiz aholisi, endigina hayotga kirib kelayotgan yoshlarni yot va begona g‘oyalar ta’siridan himoyalashida mafkuraviy immunitet alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘tmishdan ma’lumki, bir xalqni o‘ziga tobe’ qilishni istagan kuchlar avvalo uning o‘zligi, tarixi, ma’naviyati va madaniyatidan judo qilishga alohida e’tibor qaratishgan. Zero, ma’naviy jihatdan zabt etilgan har qanday xalqni madaniy-ma’naviy taraqqiyotini bo‘g‘ib qo‘yish istilochi, bosqinchi mamlakatlarning mustamlakachilik tartiblarini saqlab turish va mustahkamlashning azaliy, tarix sinovidan o‘tgan an’anaviy usullaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Buning uchun ular o‘z mafkurasi va g‘oyalarini tobe’ davlatga majburan joriy etish, madaniyatiga rahna solish orqali ma’naviy jihatdan taraqqiy etishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bu borada Xitoy donishmandi Konfutsiy o‘z imperatoriga shunday “maslahat” bergan ekan: “Hoqonim, agar biror mamlakatni zabt etib, u yerda uzoq hukmronlik qilmoqchi bo‘lsangiz, dastavval o‘sha yerda yashayotgan xalqni o‘z tarixi madaniyatidan mahrum eting, ma’naviy qashshoqlik holatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o‘raladi, sizga qarshilik ko‘rsata olmaydi. Bunday holga kelgan xalqni, mamlakatni idora qilish oson kechadi”[268], - deya ta’kidlab o‘tgani e’tiborga molikdir. Binobarin, madaniyat va ma’naviyatni barbod etish, milliy til, urf-odatlarni taraqqiy etishiga izn bermaslik itoat ettirilgan xalqni jilovda ushlab turishning eng zarur va nozik yo‘llaridan biri ekanligini bosqinchilar doimo juda yaxshi anglagan.

Bugun dunyo shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bir davrda mafkura poligonlarida g‘oyaviy – mafkuraviy kurashning tobora avj olishi yoshlar ongi va qalbini ekspansiya (zabt etish) etishga zamin yaratmoqda. Shu tariqa, ma’naviy tubanlik ta’siri oqibatida madaniyatsizlik, e’tiqodsizlik kabi bir qator “ta’limotlari” oshkora ba’zan esa yashirin tarzda targ‘ib etilmoqda. Bunday g‘oyalarga qarshi kurashishda yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustaphkamlash yang yaxshi usul sanaladi.

Keyingi yillarda yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosiy faolligini oshirishga nisbatan davlatning maqsadi va mohiyati ham tubdan o‘zgardi. Bu davlatning maqsadlarini o‘zgarganligi, huquqiy davlat mezonlari asosida davlatni bosh islohotchiga aylanganligi bilan bog‘liq hamda uning yangicha g‘oyaviy asosga qo‘yilganligida namoyon bo‘lmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari fikr bildirar ekanlar: “Jamiyat hayotida dunyoviy va diniy omillar

[268]Mamatqobilov T., Musayev M., Jurayev H. Xalqimizni harakatlar strategiyasini amalga oshirishga safarbar qilishda ma’naviy- ma’rifiy ishlarning roli. – Toshkent: “Sano-standart”, 2017. – B. 15.

o'rtasidagi sog'lom muvozanatni to'liq ta'minlashga yordam beradigan azaliy an'ana va urf-odatlarning qadrsizlanishiga, deideologizatsiyaga yo'l qo'yish hollari uchramoqda. Dunyoqarashi keng, ma'nan barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladigan g'oyaviy tarbiya mexanizmining ta'siri kamaygani sezilmoqda. Jumladan, uzluksiz ta'lim tizimida milliy g'oya turkumidagi fanlarga yetarlicha e'tibor berilmayotgani yosh avlod qalbi va ongida mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda"[269], deydilar. Bunday dunyoqarash natijasida yoshlar faolligini oshirishning yangicha ma'naviy omillariga e'tibor qaratilib, jamiyat boshqaruvida quyidagilarga e'tibor qaratildi:

1. Davlat hokimiyati boshqaruvining ma'naviy, g'oyaviy-mafkuraviy asoslari tubdan o'zgarib, mahallada yoshlarning faolligi namoyon bo'ldi. Jamiyatda davlat boshqaruvining yangicha ma'no-mazmun baxsh etishi yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirdi.

2. Yoshlarning jamiyat hayotiga qarashi milliy g'oya bilan uyg'unlashib, mahalla ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligiga tayanish barcha sohalarda yangicha mazmun kasb etmoqda.

Mamlakatda "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili asosida yosh rahbar kadrlar qatlamini faqat davlat boshqaruvi sohasidagina emas, balki fuqarolik jamiyati institutlarining o'zlarini mustaqil boshqarish sohasida ham shakllanishiga muhim e'tibor berildi. El-yurtimizning tinchligi va osoyishtaligi, xalqimizning farovon hayoti, har bir xonadonning totuvligini, farzandlarimizning baxtu va kamolini ko'rishimiz uchun eng avvalo, el-yurtimizga insofli, diyonatli, bilimdon, tajribali yosh rahbarlar, el-yurt obro'si uchun kurashadiganlarga e'tibor qaratildi.

Mahallada yoshlarning ong va tafakkurining o'zgarishi, ularning jamiyat hayotida faol ta'sir etuvchi omilga aylanishi mafkuraviy immunitet bilan uyg'unlashdi. Bugun yoshlar faolligi ham mafkuralar xilma-xilligiga asoslangan holda, fikrlar xilma-xilligini namoyon etadigan, yangi maqsadlar bilan yashash hamda boshqaruvni amalga oshirishni ko'zda tutmoqda. Buni amalga oshirishda yoshlar o'ziga xos yangi kuch va qatlamdir. Chunki, boshqaruv sohasidagi o'zgarishlar va yangiliklarni tushunishda ular o'ziga

[269] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: "O'zbekiston", 2021. – B. 295.

xos iqtidorga ega. Bu bugun yoshlarni boshqaruvga jalb etish va ularning faolligini oshirishga qaratilgan yangi beshta muhim tashabbusda aniq namoyon bo'lmoqda.

Mamlakatimiz yoshlari mahallalarning nafaqat quvonch va baxt manbai, balki bunyodkorlik, Vatanni obodonlashtirish, turli guruhlar va qatlamlarning yordami va hamkorligi sohasidagi ishlarining faol qatlami ekanligini chuqur anglash muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda, mafkuraviy islohotlarni samaradorligi mahalla yoshlarining bilimi va ijodiy salohiyatiga tayanadi. Chunki hozirgi sharoitda yoshlar zamonaviy dunyoning, voqeliklariga tezroq va yaxshiroq moslasha oladilar, shu bilan birga, mahalla taraqqiyotiga hal qiluvchi hissa qo'shadilar. Yoshlar o'z mahallasining qadimiy tarixiy va madaniy an'analarining davomchisi, buyuk tashabbuslarning manbai, yangi g'oyalarning generatori, yangi O'zbekistonning bugungi va kelajak taqdirining yaratuvchisidir. Yangi O'zbekistonda yoshlar faolligini yuksaltirish asosida mafkuraviy immunitetni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, mahalla salohiyatini mustahkamlash, yosh avlodni zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalardan negizida tarbiyalash dolzarb sanaladi.

Umuman olganda, mahallada yoshlar faolligidan samarali foydalanish, ularning ma'naviy dunyoqarashini mafkuraviy immunitetdan kelib chiqqan holda siyosiy faollashtirish, tadbirkorlik va biznes sohasidagi faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Bu boradagi yoshlarning siyosiy faoligini oshirishda har bir mahalla o'zining muayyan "Yo'l xaritasi"ga ega bo'lishi muhim falsafiy ahamiyat kasb etib qoladi.

* * *

## MUNDARIJA

**G‘afurov Uyg‘un.** So‘z boshi ....................................................................5

### I SHO‘BA. YANGI O‘ZBEKISTONDA DINSHUNOSLIK SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI

**Saidov Akmal.** Yangi O‘zbekistonda “Islom huquqi”ni o‘rganish: holati va istiqbollari ....................................................................8
**Maxsudov Davron.** Diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar ....................................................................17
**Islomov Zohidjon.** Yangi O‘zbekiston dinshunosligi rivojining o‘ziga xosligi....................................................................21
**Ibragimov Eldor.** Ilk xristian jamoalaridan nestorianlikka bir nazar ..........25
**Kamilov Davron.** Rus pravoslav cherkovining sekulyar standartlarga munosabati....................................................................29
**Shermuhammedov Komiljon.** Radikalizm va ekstremizmga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro tajribaning o‘ziga xos jihatlari...............................33
**Najmiddinov Jasur.** Destruktiv sektalar qurbonlarini reabilitatsiya qilish amaliyoti....................................................................36
**Yusupova Dildora.** Dunyoviy davlat va zamonaviy tendensiyalar ..............40
**Ernazarov Odiljon.** Iso Masih shaxsiyati haqidagi qarashlar......................45
**Turdiyeva Dilafruz.** Malayziyada diniy islohotchilik g’oyalarining kelib chiqishi va rivojlanishi....................................................................50
**Xudoyberganova Gulnora.** Destruktiv sektalar g‘oyalariga asketik qarashlarning sinkretlashuvi ..........................................................53
**Alidjanova Lazizaxon.** Rossiya imperiyasi ijtimoiy hayotida xristian monastirlarining ahamiyati ..........................................................57
**Abdupattayev Mumin Mirzo.** “Al-milal va-n-nihal” asarida brahmanlik e’tiqodining yoritilishi ..........................................................62
**Burgutxonov Saidumarxon.** Dinshunoslikni o‘qitishda yangi interaktiv metod ....................................................................66
**Abduraimova Shahzoda.** Markaziy Osiyo yoshlari orasida “Dinshunoslik” fanini o‘qitishning ahamiyati .............................................68
**Agzamova Nozima.** Ilk xristianlik tarixining davrlash masalalari ...............72

**Mirzaraimova Marjonabonu.** Kabbalizm va uning dinshunoslik talqini ....... 74
**Toirova Zilola.** Musulmon dunyosida xristianlik manbalarini tanqidiy o'rganish masalalari ....... 78

## II SHO'BA. UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI TA'LIM TIZIMIDAGI YANGILANISHLAR

**Ro'ziyev Zokirjon.** Abul Hasan Omiriy hayoti va asarlariga oid tadqiqotlar ....... 84
**Muxamedov Ne'matullo.** "Tarix (Islom tarixi va manbashunosligi)" ta'lim yo'nalishi: yutuq va muammolar ....... 90
**Akmalov Shaislom.** Markaziy Osiyo davlatlarining din sohasidagi siyosatining ayrim jihatlari ....... 93
**Rahimjonov Durbek.** Islomshunoslik sohasini rivojlantirishning dolzarb vazifalari ....... 98
**Turgunova Aziza.** Islom dinida keksalik donishmandlik ramzi sifatida ....... 101
**Mamataxunov Nozim.** O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi bitiruvchilarining respublika oliy ta'lim muassasalaridagi faoliyatiga doir masalalar (Oriental universiteti misolida) ....... 104
**Xodjayeva Mavluda.** Diniy-ma'rifiy sohada informatsion texnologiyalar bo'yicha kadrlar tayyorlash masalalari ....... 107
**Isakdjanov Ramziddin.** Ibn Sino ilohiyotiga oid qarashlarni o'rganish bo'yicha ilmiy manbalar ....... 110
**Xatamov Toxir.** Zangi ota merosining yurtimizda o'rganilishi ....... 115
**Agzamova Muhabbatxon.** Islom dinining asosiy manbalarida tinchlik masalasini yoritilishi ....... 120
**Usmonov Muhammadsiddiq.** Shayx Zafar Ahmad Al-Usmoniy At-Taxonaviy hayoti va ilmiy faoliyati ....... 125
**Zinatullayev Ziyodilla.** Islomdan avval Markaziy Osiyoda diniy omilning boshqaruv tizimiga ta'siri ....... 129
**Musayev Amonulloh.** "So'z zargari"ning shoh asari ....... 132
**G'aybullayev Saidahmadxon.** "Qissa" janridagi hadislar va ularning mazmun-mohiyati ....... 134
**Shovkatov Shokir.** "Usul ad-din" asarining yozilish uslubi va unda aqidaviy masalalarning tasniflanishi ....... 140

**Abduqodirov Jasurbek.** Arabiston yarimorolida usmoniylar davlatiga qarshi harakatlar ....143
**Muminova Dilshodaxon, Raimberdiyeva Gulnora.** Jadid adabiyotida diniy bag'rikenglik tamoyillari....147
**Xo'jaqulova Munira.** Abu Nasr Forobiy qarashlarida aql va ruhning ilohiy va tabiiy aloqadorligi masalalari ....153
**Nig'matullayev Ibrohim.** O'zbekistonda shia jamoalari an'analarining shakllanish tarixi ....156
**Jaloliddinov Botirjon.** Ya'qub ibn Abdullatif va uning "Islom mazhablari va kalomi" asari....159
**Anvarov Elyorbek.** "Mavahibul latifa" asari – mazhabsizlik xatarini oldini olishda muhim manba ....162
**Sultonova Durdona.** Tafsir ilmining shakllanishi va tadrijiy rivoji ....165
**Botirova Roziya.** Islom tarixida varroqlar ....169

## III SHO'BA. "DINSHUNOSLIK" FANINI O'QITISH: TEXNOLOGIYALAR, YUTUQLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

**Alimova Mahfuza.** "Dinshunoslik" fani ta'limidagi zamonaviy tendensiyalar ....175
**Urazova Ra'no.** Zardushtiylikda yakkaxudolik g'oyasi dinlar tarixida inqilobiy hodisa sifatida....178
**Abdullayev Botir.** Zardushtiylik shakllanishida turkiy xalqlarning ahamiyati haqida ba'zi mulohazalar ....181
**Kalandarova Dono.** Virtual jamoalar identik konstruktivligi tahlili ....185
**Gafurova Irodaxon.** Turkistondagi noislomiy e'tiqodlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar....188
**Rashidov Firuz.** "Din va e'tiqodlar negizidagi murosasizlik va kamsitishlarning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi deklaratsiya" – vijdon erkinligining xalqaro huquqiy asosi ....194
**Mallabayev Abdulloh.** Xristianlik dini manbalarida o'lchov birliklarining yoritilishi ....199
**Turambetov Nurulloh.** Dunyoning konfessional manzarasidagi o'zgarishlar tendensiyasi....201
**Soipov Behzod.** Zamonaviy dunyoda "siyosiy islom"....209
**Yakupov Aydos.** XIX asrda qoraqalpoq xalqi orasidagi dafn marosimiga doir an'analar ....212

**Abdumutalibov Abdulahad.** Globallashuv zamonida dindorlik bilan bog‘liq muammolar....215
**Abdulxamidov Abdulxamid.** Destruktiv sekta g‘oyalarining shaxsga ta’siri....219

## IV SHO‘BA. DIN SOTSIOLOGIYASI VA PSIXOLOGIYASINING KONSEPTUAL MUAMMOLARI

**Akramov Mirmuxsin.** Mutaassib shaxslar bilan ishlashda mutaxassisning individual-psixologik imkoniyatlari....223
**G‘ayibova Nargiza, Xurboyev Abdulxamid.** Din psixologiyasida dindor shaxs shakllanishi masalalari....227
**Nazarov Azamat.** Ekstremizm psixoproflaktikasining ijtimoiy-psixologik jihatlari....231
**Nosirova Aziza.** Dinlararo bag‘rikenglik madaniyatini mustahkamlashda diniy ksenofobiya profilaktikasi....234
**Tuychiyeva Nilufar.** Tasavvuf ta’limotining ma’naviy yuksalishdagi ahamiyati....237
**Hakimova Nigora.** Islomiy bag‘rikenglik tamoyilining ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda aks etishi....240
**Faxriddinov Zafar.** Zamonaviy tariqatchilikning diniy bag‘rikenglik muhiti barqarorligiga zid jihatlari....243
**Abdusattorov Ilhom.** Komil insonni tarbiyalashda “Sunani Termiziy” asarining ahamiyati....246
**Rasulova Nilufar, Obidjonova Mavluda.** Yoshlarda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish masalalari tahlili....250
**Norboyeva Surayyo.** Nafs tarbiyasi va xulq-atvor aloqasining psixologik korrelyantlari....255
**G‘aybullayeva Laylo.** Mahallada yoshlar faolligini oshirishda mafkuraviy immunitetning o‘rni....259
**Kasimov Anvar.** G‘arb tadqiqotchilarining tasavvuf haqidagi qarashlari....263

## V SHO‘BA. INSONIY BIRODARLIK VA DINLARARO MULOQOT – XALQARO HAMJIHATLIK OMILI

**G‘afurov Uyg‘un.** Globallashuv sharoitida dinlararo muloqotni tashkil etish zarurati....268

**Muhammad Abdulsalom.** "Insoniy birodarlik va dinlararo muloqot – xalqaro hamjihatlik omili" mavzusidagi xalqaro seminar ishtirokchilarga tabrigi ....................................................................270
**Allister Lee, Joseph Tham.** Global dunyoda do'stlik va hamkorlik aloqalarini rivojlantirish: Bioetika va inson huquqlari bo'yicha UNESCO kafedrasi faoliyati ........................................271
**Shihata Abdurrazzak.** Sivilizatsiyalararo hamkorlikda islomdagi madaniy aloqalarining o'rni ......................................................273
**Kamalova Feride.** Dinlararo totuvlik xalqlar o'rtasidagi tinchlik garovi (qozoq tilida)..............................................................................275
**Nizomiddinov Najmiddin.** Bhaktiy ta'limotidagi "Insonga muhabbat, bu – Tangriga sadoqat" tamoyili mazmuni ................................280
**Turdiyeva Dilafruz.** Dinlararo muloqot va insoniy birodarlikni ta'minlashda ta'limning ahamiyati ..............................................................284
**Nematov Alouddin.** Islomda insoniy birodarlik g'oyasi targ'iboti ............286
**Toxtiyev Shuxrat.** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro xonligida sunniylar va shialar o'rtasidagi munosabatlarning oqibatlari ......................290
**Abduraimov Alijon.** Diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik – barqaror kelajak poydevori..........................................................293
**Muhamedova Adiba.** Sin davri musulmon olimlari asarlarining qadimgi Xitoy mumtoz adabiyoti bilan o'zaro uyg'unlashuvi ....................297
**Djahongirova Muyassar.** Dinlararo muloqot madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.........................................................................300
**Kenjayeva Diyora.** Malayziya Federatsiyasining etnokonfessional manzarasi: tarix va hozirgi zamon ............................................................306

## VI SHO'BA. 1999-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA DINIY-MA'RIFIY SOHADA AMALGA OSHIRILGAN TIZIMLI ISLOHOTLAR SARHISOBI

**Axmedov Xusniddin.** G'arb va Sharq mutafakkirlarining qarashlarida "siyosiy va huquqiy madaniyat" tushunchasi talqini ..............310
**Agzamxodjayev Saidakbar.** Mahalla – fuqarolar ongida diniy qadriyatlarni e'zozlaydigan maskan ..........................................................315
**Umarov Abduvaxob.** O'zbekistonning diniy bag'rikenglikni ta'minlash sohasidagi davlat siyosati..........................................................318

**Abdullayev Abdurasul.** Barkamol avlodni tarbiyalashda ajdodlarimiz merosi va milliy qadriyatlarning o‘rni....................................321
**Abdullayeva Mohira.** Mass media va terrorizm masalalarining yoritishdagi o‘ziga xosliklar ....................................................................324
**Muxtarov Bekzodbek.** Sof islomiy tushunchalarning g‘arazli maqsadlarda talqin etilishi: “jihod” tushunchasi.........................................327
**Otaqo‘ziyev Ma’murjon.** O‘zbek segmentiga mo‘ljallangan diniy kontentlar tahlili.............................................................................332
**Xo‘jayorov Asilbek.** Yangi O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohadagi o‘zgarishlar ..........................................................................336
**Shaxavutdinova Mahsuma.** Maryam bintu Imron – dunyo ayollarining eng afzali.............................................................................341
**Xo‘jakulova Feruza, Omonova Ma’mura.** Terrorizm va uning internetda aks etishi ........................................................................344
**Qunishev Ulug‘bek.** Nemis klassik falsafasida kantning diniy va dunyoviy qadriyatlar haqidagi qarashlari.......................................346
**Nasimov Azizbek.** Barkamol avlod tarbiyasida axloqiy qadriyatlarning din bilan uyg‘unligi ..........................................................350
**Mirakbarova Dildora.** Farzand tarbiyasida umuminsoniy va diniy tamoyillar uyg‘unligining ahamiyati............................................353
**Xusanov G‘olib.** O‘zbek oilasida yoshlarning mafkuraviy immunitetini oshirish masalalari.................................................................358
**Egamberdiyeva Aziza.** Dinning yoshlarda altruizmni shakllantirishdagi nazariy-uslubiy masalalari.............................................361
**Egamberdiyeva Nafisa.** O‘zbek oilasida yoshlar muomala madaniyatini rivojlantirishda dunyoviy va diniy qadriyatlarning o‘rni .........................................................................365
**Mirzaxanova Dilfuza.** Sharq mutafakkirlari asarlarida milliy qadriyatlarga oid qarashlar ................................................................368
**Xolmirzayeva Mohichexra.** Qur’onda Maryam siyratining yoritilishi..........................................................................................371